



**PRESS-RELIZ**

**2022-yil 27-oktabr**

### **Ishlab chiqarishga texnologiyalarni joriy etish yuzasidan brifing to‘g‘risida**

**2022-yil 27-oktabr kuni Navoiy shahridagi “NKMK tarixi” muzeyida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ Texnologiya bo‘yicha direktori Otabek Mustaqimov ishtirokida kombinatda ishlab chiqarishga texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar sarhisobiga bag‘ishlangan brifing o‘tkazildi.**

Bugungi keskin raqobat sharoitida ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni joriy etmasdan ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Shu maqsadda, Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ham bu borada keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqdaki, bu o‘z navbatida korxonada qudrati va ishlab chiqarish salohiyatini oshirib borishga xizmat qilmoqda. Bu borada kombinatda muhim dasturlar asosida yirik investitsion loyihalar amalga oshirilayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, so‘nggi yillarda ishlab chiqarishga ilm-fan yutuqlarini jadal tatbiq etilishi, sohaga ilg‘or texnologiyalar olib kirilishi, shuning bilan birga, dunyoda muqobili bo‘lmagan, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan yangi gidrometallurgiya zavodlari va boshqa tarmoqlar barpo etilayotgani ishlab chiqarish hajmini yanada kengaytirib bormoqda. Buning natijasida korxonada konlarni o‘zlashtirish, ma‘dan qazib olishdan tortib, tayyor mahsulot olishgacha bo‘lgan yaxlit bir tizim asosida faoliyat olib borayotgan kon-metallurgiya sohasidagi ulkan klasterga aylandi.

Misol uchun, 3-gidrometallurgiya zavodida muhandislik-texnik yechimi, texnologik jihozlanish darajasi bilan dunyoda o‘xshashi yo‘q Sorbsiyalash jarayoni chiqindilarni yuqori samarali kuydirish majmuasi barpo etilgani ana shunday yutuqlardan biridir. Jumladan, 12 nafar kombinat rahbar-mutaxassislari, muhandis va olimlari tomonidan murakkab tarkibli rudalardan oltin ajratib olish texnologiyasi yaratilib, bu ixtiro uchun xalqaro patent qo‘lga kiritildi. Shu bilan birga, bu ixtiro 2017-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Butunjahon intellektual mulk tashkiloti tomonidan “Eng yaxshi ixtiro uchun” oltin medal bilan taqdirlandi. Bu texnologiyaning joriy etilishi zavodda chiqindilardan oltin ajratib olish darajasini 11 foizga, qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni 16 foizga oshirish imkonini berdi.

Yana bir yutuqlardan biri – innovatsion va kreativ yechimlarga asoslangan, dunyoda muqobili bo‘lmagan 5-gidrometallurgiya zavodi barpo etilganidir. Ushbu zavodga o‘rnatilgan texnologiya sulfidli ma‘dan tarkibidan organik uglerodli konsentrationi kislorodli-ohakli oksidlash asosida oltin ajratib olishga asoslangan va yillik 5 mln tonna ma‘danni qayta ishlash quvvatiga ega.

O‘tgan yili ishga tushirilgan 7-gidrometallurgiya zavodi ham korxonaga o‘rnatilgan texnologiyasi bilan ajralib turadi. Uning o‘ziga xosligi shundaki, bu texnologiya tarkibida oltin kam bo‘lgan texnogen chiqindilarni eng murakkab jarayonlar orqali qayta ishlashga mo‘ljallangan. Hozirda zavodning texnogen chiqindilarni qayta ishlash quvvati 16 million tonnadan oshdi. Bunday misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin.

**Murojaat uchun ma'lumotlar:**

“NKMK” AJ Matbuot xizmati, Ish telefonlari: +99879 227-75-88, 227-74-73

“NKMK” AJ rasmiy veb-sayti: [www.ngmk.uz](http://www.ngmk.uz)

“NKMK” AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari:

**[t.me/ngmkofficial](https://t.me/ngmkofficial), [www.fb.com/nkmkofficial](https://www.fb.com/nkmkofficial), [instagram.com/nkmk.official](https://instagram.com/nkmk.official), [www.youtube.com/nkmkofficial](https://www.youtube.com/nkmkofficial)**